

YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yilning yanvar – dekabrda Jizzax viloyati YaHM hajmi joriy narxlarda 11 820,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 2,6 % ga o'sdi. YaHM deflyatori indeksi 2017 yilning yanvar – dekabrda narxlarga nisbatan 125,9 foizni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 8 830,3 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,7 % ga oshdi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish (yanvar-dekabr)

	Mlrd.so'm		2017 yilga nisbatan, % da
	2017y.	2018y.	
I. YaHM	9 148,1	11 820,2	102,6
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	8 911,3	11 462,7	102,6
Mahsulotlarga sof soliqlar	236,8	357,5	104,4
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	8 911,3	11 462,7	102,6
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	5 262,9	6 985,6	101,6
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1 277,8	1 603,4	100,1
sanoat	824,6	1 025,0	97,8
qurilish	453,2	578,4	104,4
Xizmatlar	2 370,6	2 873,7	106,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	591,6	761,6	110,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	459,1	501,8	106,2
Boshqa xizmat tarmoqlari	1 319,9	1 610,3	104,3

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati – 101,6 %, (YaHM tarkibidagi ulushi – 60,9 %), qurilish – 104,4 %, (5,0 %), xizmatlar – 106,1 %, (25,2 %).

Sanoat tarmog'ida esa, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,6 % ga kamayish kuzatildi.

2018 yil yanvar - dekabr uchun YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari



Iqtisodiy faoliyat turlari


Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) xajmi umumiy YaHMning 97,0 % ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa, 3,0 % ini tashkil etdi.

Qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 1,8 % punktga ko'paydi va hisobot yilida 60,9 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining ulushi 0,5 % punktga kamaydi va hisobot yilida 13,9 % ni tashkil etdi.


Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 1,3 % punktga kamaydi va hisobot yilida 25,2 % ni tashkil etdi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi

2017 yil yanvar - dekabr




2018 yil yanvar-dekabr



- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar

Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarmoqlari tarkibidagi ulushi 6,6 % ni (2017 yil yanvar – dekabrda 6,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 4,4 % ni (5,2 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 14,2 % ni (14,7 %) tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)**



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Jizzax viloyati statistika boshqarmasi
Statistika faoliyatini tashkil etish
va yig'ma axborot-tahliliy ishlari bo'limi
Nashr uchun mas'ul: G'.Mamadiyev
Telefon: (0371) 230-83-42